Annotatsiya. Mazkur maqolada kadrlar siyosati va davlat xizmatining samaradorligini baholash hamda rivojlantirishga qaratilgan milliy modelni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Davlat boshqaruvida inson kapitalining roli, kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va rag‘batlantirish mexanizmlarining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar yoritiladi. Shuningdek, davlat xizmati faoliyatini baholashning zamonaviy indikatorlari, xalqaro tajriba va milliy xususiyatlarni uyg‘unlashtirish orqali barqaror va natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini yaratish imkoniyatlari asoslab beriladi. Taklif etilgan milliy model davlat xizmatining ochiqligi, hisobdorligi va kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kadrlar siyosati, davlat xizmati, samaradorlikni baholash, milliy model, inson kapitali, davlat boshqaruvi, kasbiy rivojlanish, institusional islohotlar, mexanizm, kadrlar, tajriba, yaratish.

Abstract. This article analyzes the development of a national model aimed at assessing and developing the effectiveness of human resources policy and the civil service. It emphasizes the role of human capital in public administration, as well as the factors influencing the effectiveness of personnel selection, training, retraining, and incentive mechanisms. It also explores the potential for creating a stable and results-oriented management system by combining modern civil service performance indicators, international experience, and national specifics. The proposed national model serves to enhance the openness, accountability, and professional potential of the civil service.

Key words: human resources policy, civil service, performance assessment, national model, human capital, public administration, professional development, institutional reforms, mechanism, personnel, experience, creation.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы формирования национальной модели, направленной на оценку и повышение эффективности кадровой политики в системе государственной службы. Подчеркивается ключевая роль человеческого капитала в государственном управлении, а также рассматриваются факторы, влияющие на эффективность отбора персонала, процессы обучения, переподготовки и механизмы стимулирования. Обосновываются возможности создания стабильной и ориентированной на результат системы управления путем интеграции современных показателей эффективности (KPI), международного опыта и национальной специфики. Предложенная национальная модель направлена на повышение открытости, подотчетности и профессионального потенциала государственной службы.

Ключевые слова: кадровая политика, государственная служба, оценка эффективности, национальная модель, человеческий капитал, государственное управление, профессиональное развитие, институциональные реформы, механизм, персонал, опыт, формирование.

## KIRISH

Hozirgi globallashuv va tezkor ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida davlat boshqaruvi tizimida kadrlar siyosatini takomillashtirish hamda davlat xizmatining samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Davlat xizmatining sifati, avvalo, inson resursi salohiyati, kadrlarni tanlash, joylashtirish, baholash va rivojlantirish mexanizmlarining qay darajada samarali tashkil etilganiga bevosita bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda davlat fuqarolik xizmatini isloh qilish, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy etish, meritokratiya asosida kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda rahbar kadrlarni

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

tayyorlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq mazkur jarayonlarda kadrlar siyosati va davlat xizmati samaradorligini baholashning yagona, kompleks va milliy xususiyatlarni hisobga olgan modeli mavjud emasligi ushbu sohada ilmiy-nazariy va amaliy yechimlarga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda.

Davlat xizmatining samaradorligini xolis va aniq baholash, xodimlarning kasbiy faoliyati, natijadorligi, mas'uliyati va rivojlanish salohiyatini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar, jamiyatda shakllangan ijtimoiy munosabatlar, mehnat madaniyati hamda davlat boshqaruvining institusional xususiyatlarini inobatga olgan milliy modelni yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada kadrlar siyosati va davlat xizmatining samaradorligini baholash hamda rivojlantirishga qaratilgan milliy modelni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, xalqaro tajriba tahlili va uni milliy amaliyotga moslashtirish imkoniyatlari o'rganiladi. Shu orqali davlat xizmatini zamonaviy, samarali va natijaga yo'naltirilgan tizim sifatida rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqish maqsad qilib olingan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kadrlar siyosati va davlat xizmatining samaradorligini baholash masalalari xorijiy va milliy ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzudagi ilmiy ishlar, asosan, davlat boshqaruvida inson resurslarini boshqarish, meritokratiya, natijaga yo'naltirilgan boshqaruv hamda faoliyat samaradorligini baholash modellariga bag'ishlangan.

Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda davlat xizmatining samaradorligini baholashda strategik boshqaruv, kompetensiyalarga asoslangan yondashuv va KPI (Key Performance Indicators) tizimlariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, OECD tomonidan ishlab chiqilgan tadqiqot va hisobotlarda davlat xizmatchilarining faoliyatini baholashni inson kapitali rivoji, institusional samaradorlik va davlat xizmatlari sifati bilan bog'liq holda ko'rib chiqish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasida davlat xizmatini baholashda ochiqlik, hisobdorlik va raqobatbardoshlik tamoyillari asos qilib olingan.

Rossiyalik olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarida davlat fuqarolik xizmatini boshqarish, kadrlar zaxirasini shakllantirish, xizmatchilar faoliyatini attestatsiyadan o'tkazish va kompleks baholash mexanizmlarini joriy etish masalalari atroflicha tahlil qilingan. Ular davlat xizmatining samaradorligini oshirishda milliy qonunchilik, ijtimoiy-siyosiy muhit va boshqaruv an'analarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydilar.

Milliy ilmiy adabiyotlarda esa kadrlar siyosati va davlat xizmatini isloh qilish masalalari, asosan, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar, davlat fuqarolik xizmati institutining shakllanishi, inson resurslarini boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish nuqtai nazaridan o'rganilgan. M.T. Baqoyev, A. Bekmurodov, D. Raximova, G.M. Raimova kabi olimlar asarlarida boshqaruv qarorlarining samaradorligi, kadrlar bilan ishlash mexanizmlari hamda davlat xizmatining natijadorligini oshirish masalalari yoritilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, taqqoslama tahlil, induksiya va deduksiya, kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mavjud ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kadrlar siyosati va davlat xizmatining samaradorligini baholashda milliy xususiyatlarni hisobga olgan, kompleks va integratsiyalashgan yagona modelni ishlab chiqish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Aksariyat tadqiqotlar alohida instrumentlar yoki muayyan boshqaruv bosqichlarini qamrab olgan bo'lib, ularni tizimli ravishda birlashtirish zarurati mavjud.

Shu bois, xorijiy ilmiy tajriba va milliy amaliy yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda kadrlar siyosati va davlat xizmatining samaradorligini baholash va rivojlantirishning milliy modelini yaratish ilmiy jihatdan asoslangan va dolzarb vazifa hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat xizmati faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan davlat boshqaruvi va xo'jalik funksiyalarini birga qo'shib olib borish amaliyotidan voz kechish, davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash hamda ijtimoiy ta'minlashning zamonaviy tizimini yaratish bo'yicha choralar ko'rilmoqda[1].

Bugungi kunda davlat organlari va tashkilotlarini yuqori malakali mutaxassislar bilan barqaror ta'minlash, kadrlarning bilim va ko'nikmalarini zamonaviy ehtiyojlarga to'liq moslashtirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu

1 O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi PF-5843-son Farmoni.

borada amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar qabul qilinayotgan qarorlar sifatini oshirishga va boshqaruv samaradorligini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilmoqda. Kadrlar salohiyatini yuklatilgan vazifalarga muvofiqlashtirish orqali tizimdagi mavjud masalalarni bartaraf etishning zamonaviy mexanizmlari izchil joriy etilmoqda.

Davlat fuqarolik xizmatida nomzodlarni ochiq va mustaqil tanlov orqali saralab olishning kompleks huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda. Bu, o'z navbatida, davlat xizmatchilarining ish samaradorligi va kompetensiyasini baholashning aniq hamda shaffof mezonlarini joriy etishga xizmat qiladi.

Davlat fuqarolik xizmati masalalari bo'yicha vakolatli organning roli kuchaytirilib, barcha davlat idoralarida yagona kadrlar siyosati va inson resurslarini boshqarishning zamonaviy usullari yo'lga qo'yilmoqda.

Bundan tashqari, davlat fuqarolik xizmatiga kirishda barcha fuqarolarning teng imkoniyatlardan foydalanishini hamda davlat fuqarolik xizmatida professional sifatlar va alohida xizmatlar asosida ko'tarilib borishni ta'minlaydigan nomzodlarni saralab olishning shaffof mexanizmlari to'liq shakllantirilmagan[2].

Bugungi globallashuv va raqobat sharoitida davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi, avvalo, davlat xizmatchilari kasbiy salohiyati va kadrlar siyosatiga bog'liq. Shu bois, davlat xizmatini baholash va rivojlantirishning zamonaviy, shaffof va milliy manfaatlarga mos modelini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Kadrlar siyosati — bu davlatning inson resurslarini shakllantirish, rivojlantirish va samarali foydalanishga qaratilgan maqsadli faoliyatidir. Samarali kadrlar siyosati quyidagilarni ta'minlaydi:

davlat organlarida professionallik va mas'uliyatni oshirish;

korrupsiyaviy omillarni kamaytirish;

aholiga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini yaxshilash;

proaktivlik.

Kadrlar siyosatida davlat xizmati samaradorligini baholash quyidagi asosiy mezonlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

Natijaviylik — belgilangan maqsadlarga erishish darajasi;

Samaradorlik — resurslardan oqilona foydalanish;

Shaffoflik va hisobdorlik — qaror qabul qilish jarayonlarining ochiqligi;

Kasbiy kompetensiya — davlat xizmatchilarining bilim va ko'nikmalari;

Jamoatchilik qoniqishi — aholining davlat xizmatlaridan rozilik darajasini oshirish.

Bu borada milliy model quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

Milliy qadriyatlar va huquqiy an'analarga moslik;

Meritokratiya — lavozimlarga tayinlashda bilim va salohiyat ustuvorligi;

Doimiy o'qitish va qayta tayyorlash;

Raqamli texnologiyalardan foydalanish;

Ijtimoiy himoya va rag'batlantirish mexanizmlari.

Bunday model davlat xizmatining barqaror rivojlanishiga, inson kapitali sifatining oshishiga va davlat boshqaruvida innovasion yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Davlat organlarida natijaga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish yo'nalishida[3]:

davlat boshqaruvida zamonaviy menejment va loyihaviy yondashuv usullarini joriy etish hamda strategik rejalashtirish asosida maqsadli ko'rsatkichlar tizimini tashkil etish;

davlat organlarining vazifa va funksiyalarini tashkiliy-huquqiy mexanizmlar, moliyaviy-iqtisodiy va kadrlar resurslari bilan ta'minlanganlik hamda boshqaruv jarayonlarining raqamlashtirilganligi jihatidan muvofiqlashtirish;

davlat organlari hududiy bo'linmalarining bir masala bo'yicha ikki tomonlama — gorizontal (hokimlikka) va vertikal (yuqori turuvchi organga) bo'ysunuvini bekor qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Hududlarda yangi imkoniyatlarni aniqlash va boshqaruv samaradorligini oshirish yo'nalishida:

mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarini yangicha yondashuv asosida aholiga kompleks xizmat ko'rsatuvchi tuzilmaga transformatsiya qilishda uslubiy rahbarlik qilish;

mahalliy ijro hokimiyati organlari bilan doimiy hamkorlik o'rnatib, hududlarni kompleks rivojlantirish borasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari hamda ularni bajarishning samarali mexanizmlarini yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat dasturlari (strategiyalar, konsepsiyalar) ijrosini ta'minlashda respublika va mahalliy ijro hokimiyati organlarining samarali hamkorligini tashkil etish;

hududlarda «o'sish nuqta»lari va ishga solinmagan imkoniyatlarni aniqlash hamda hududlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

2 O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi PF-5843-son Farmoni.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-dekabrdagi "Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-243-son Farmoni.

Davlat organlarida inson resurslarini boshqarish va ularning salohiyatini rivojlantirish yoʻnalishida:

davlat xizmatiga munosib kadrlarni jalb etish, istiqbolli rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda davlat xizmatchilarining karyeraviy oʻsishiga koʻmaklashish;

davlat xizmatchilari uchun kompetensiyalar modelini ishlab chiqish, ularni shaxsiy va kasbiy diagnostika qilish hamda davlat xizmatchilarining bilim va kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirishni tashkil etish;

davlat xizmatida zamonaviy «HR» tizimini joriy etish va davlat organlarining kadrlar siyosatini muvofiqlashtirish;

muvaffaqiyatga erishgan xorijdagi vatandoshlarimizning bilim va salohiyatidan foydalanish orqali hududlar va tarmoqlarda ishga solinmagan yangi zaxiralarni aniqlash hamda ularni xalqaro tajriba asosida rivojlantirishga koʻmaklashish muhimdir.

Davlat xizmatini rivojlantirishda kadrlar siyosati samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish hamda Oʻzbekiston sharoitiga mos milliy modelni ishlab chiqishda, davlat xizmati va kadrlar siyosati tushunchalarining nazariy mazmunini tahlil qilish;

davlat xizmati samaradorligini baholashga oid xorijiy tajribani oʻrganish;

Oʻzbekistonda amal qilayotgan kadrlar siyosati va davlat xizmati tizimining hozirgi holatini tahlil qilish;

samaradorlikni baholash indikatorlar tizimini ishlab chiqish;

davlat xizmatini rivojlantirishning milliy modelini taklif etish;

ishlab chiqilgan modelni amalga joriy etish boʻyicha amaliy taklif va tavsiyalar berish;

davlat xizmati samaradorligini baholashning kompleks indikatorlar tizimi ishlab chiqish;

kadrlar siyosati samaradorligini baholashning institusional modeli ishlab chiqish (1-jadval).

1-jadval. Davlat xizmatining samaradorligini baholash va rivojlantirish milliy modeli[4]

| Yoʻnalish | Asosiy mazmun | Instrumentlar | Kutiladigan natija |
|---|---|---|---|
| Kadrlar siyosati | Milliy ustuvorliklar | Strategiya, qonunlar | Barqaror kadrlar tizimi |
| Tanlash | Meritokratiya | Ochiq tanlov | Sifatli kadrlar |
| Baholash | Faoliyat natijasi | KPI, attestatsiya | Xolis baholash |
| Rivojlantirish | Kasbiy oʻsish | Mentorlik, oʻqitish | Salohiyat oshishi |
| Motivatsiya | Ragʻbat | Moddiy/nomoddiy | Ish unumdorligi |
| Monitoring | Nazorat | Tahlil, indikator | Doimiy yaxshilanish |

Taklif etilayotgan model davlat boshqaruvida inson kapitali samaradorligini oshirishga qaratilgan boʻlib, oltita strategik ustunni oʻz ichiga oladi. Uning asosi — milliy manfaatlar va huquqiy bazaga tayanuvchi tizimli kadrlar siyosati boʻlib, u barqaror boshqaruv apparatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur model doirasida kadrlarni saralash meritokratiya (munosiblik) tamoyili asosida ochiq tanlovlar orqali amalga oshirilib, tizimga sifatli mutaxassislar kirib kelishi taʼminlanadi. Kadrlar faoliyati esa shunchaki jarayon emas, balki KPI (samadorlik koʻrsatkichlari) va attestatsiya instrumentlari yordamida natijaga yoʻnaltirilgan holda xolis baholanadi.

Davlat xizmatida kadrlar siyosati va faoliyat samaradorligini baholashning mavjud nazariy yondashuvlari tizimlashtirilib, ularning Oʻzbekiston sharoitida qoʻllanish imkoniyatlari ilmiy asoslash,

Davlat xizmatchilari faoliyatini baholashga taʼsir etuvchi institusional, tashkiliy, motivasion va raqamli omillar oʻzaro bogʻliq tizim sifatida ilmiy jihatdan asoslash,

Davlat xizmati samaradorligini baholash uchun kompleks indikatorlar tizimi (kasbiy salohiyat, natijadorlik, xizmat sifati, jamoat ishonchi va innovasion faollik koʻrsatkichlari) amaliyotga joriy etish,

Kadrlar siyosati va davlat xizmati rivojlanishini taʼminlovchi milliy model ishlab chiqilib, unda meritokratiya, natijaga yoʻnaltirilgan boshqaruv, raqamli HR, uzluksiz malaka oshirish mexanizmlari oʻzaro integratsiyalash.

Davlat xizmatini rivojlantirish boʻyicha strategik va institusional takliflar ishlab chiqilib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ilmiy jihatdan isbotlash lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kadrlar siyosati va davlat xizmatining samaradorligini baholash va rivojlantirishning milliy modelini yaratish davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishning muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Milliy model kadrlarni tanlash, baholash va rivojlantirish jarayonlarini yagona tizimga birlashtirish orqali inson resurslaridan samarali foydalanishni taʼminlaydi.

4 Muallif ishlanmasi.

Mazkur model milliy qadriyatlar, institusional muhit va zamonaviy boshqaruv tamoyillarining uyg‘unligiga asoslanib, davlat xizmatining ochiqligi, hisobdorligi va natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mentorlik, kompetensiyaga asoslangan baholash va doimiy monitoring mexanizmlarining joriy etilishi kadrlar salohiyatini barqaror rivojlantirish imkonini beradi.

Natijada, davlat xizmati sifati oshadi, fuqarolar ishonchi mustahkamlanadi hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi samarali davlat boshqaruvi tizimi shakllanadi.

Kadrlar siyosati va davlat xizmatining samaradorligini baholash va rivojlantirish milliy modelini yaratish bo‘yicha takliflar qo‘yidagilar:

Birinchidan, kadrlar siyosati sohasida institusional yondashuvni kuchaytirish, davlat xizmatini rivojlantirishda kadrlar siyosati yagona strategik konsepsiya asosida shakllantirilishi lozim. Shu maqsadda davlat fuqarolik xizmatida kadrlar bilan ishlashga mas’ul organlar o‘rtasida vakolatlarni aniq belgilash, ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi institusional mexanizmni joriy etish taklif etiladi.

Ikkinchidan, Davlat xizmatining samaradorligini baholashning milliy indikatorlar tizimini ishlab chiqish,Xalqaro tajribani hisobga olgan holda, milliy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va qadriyatlarga mos indikatorlar asosida davlat xizmatchilarining faoliyatini baholash tizimini shakllantirish zarur. Bunda KPI, kompetensiyalarga asoslangan baholash va faoliyat natijadorligini o‘lchash instrumentlarini integratsiyalashtirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, meritokratiya tamoyillarini to‘liq joriy etish, davlat xizmatiga qabul qilish, lavozim bo‘yicha o‘sish va rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish jarayonlarida meritokratiya tamoyillarini to‘liq joriy etish taklif etiladi. Bu kadrlarning bilim, malaka va kasbiy salohiyatiga asoslangan adolatli qarorlar qabul qilishni ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, kadrlarni rivojlantirishda mentorlik va uzluksiz ta’lim tizimini joriy etish, davlat xizmatchilarining kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlash maqsadida mentorlik tizimini institusional darajada joriy etish.

Beshinchidan, samarali motivatsiya va rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat xizmatchilarining mehnat unumdorligini oshirish uchun moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish mexanizmlarini kompleks qo‘llash taklif etiladi. Bunda faoliyat natijasiga bog‘liq rag‘bat, ijtimoiy kafolatlar va kasbiy o‘sish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oltinchidan, raqamli texnologiyalar asosida monitoring va baholashni joriy etish, davlat xizmatining samaradorligini baholash va kadrlar siyosati natijadorligini oshirish maqsadida raqamli platformalar, integratsiyalashgan axborot tizimlari va elektron monitoring instrumentlarini joriy etish taklif qilinadi. Bu inson omilini kamaytirish, shaffoflik va xolislikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Yettinchidan, ilmiy-tahliliy qo‘llab-quvvatlash va doimiy takomillashtirish mexanizmini yaratish, milliy modelni amalga oshirish jarayonida ilmiy muassasalar, tahliliy markazlar va ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, tizim samaradorligini doimiy tahlil qilish va natijalar asosida takomillashtirib borish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmoni. https://lex.uz/docs/4549998
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-dekabrdagi “Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-243-son Farmoni. https://www.lex.uz/uz/docs/7886963
3. Бекмуродов А. Ш., Рахимова Д. Н. Наука в государственном управлении нового Узбекистана // Государственная служба. 2024. Т. 26, № 6. С. 21–28. https://doi.org/10.22394/2070-8378-2024-26-6-21-28.
4. Алимов Б.Б., Рахимова Д.Н., Хамидулин М.Б. Эволюция государственного управления в странах постсоветского пространства. Республика Узбекистан.Государственная служба. 2021. № 2. С. 188–203. https://doi.org/10.22394/2070-8378-2022-24- 4-103-118
5. Рахимова Д.Н. Эволюция государственного управления в Узбекистане.Экономическое обозрение. 2021. № 4 (256). С. 103–118.
6. United States Office of Personnel Management. A Handbook for Measuring Employee Performance:OPM.GOV, 2017 –P. 6
7. Torneo, Ador. (2015). Government Performance Management and Evaluation in South Korea: History and Current Practices. Public Performance & Management Review. 39. 279-296. 10.1080/15309576.2015.1108767.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 1**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz